

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№ SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Фофуров Низомжон Октябрович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Сабиров Алишер Сабирович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам (США)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Муйдинова Моҳира Муқимжоновна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ходжаев Собир Джумаевич
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Акрамов Хусан Фуркатович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харасович
кандидат политических наук, и.о. доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ.....	5
2. Sabirova Umida SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
3. Алексеева Виктория КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	21
4. Kayumov Kaxramon KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHLTLARI.....	30
5. Alikariyeva A'loxon TA'LIM SIFATI BOShQARUVIGA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	36
6. Mannanova Nilufar DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOYILI QAROR TOPISHINING MUHIM MASALASI SIFATIDA.....	44
7. Mo'minov Zokirjon IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHLTLARI.....	51
8. Jiyanmuratova Gulnoz YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR.....	58
9. Сеитов Мансур МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ.....	66
10. Узакова Зарина СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.....	74
11. Ziyayeva Xolida AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR TAHLILI.....	80
12. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIIY OMILLARI.....	88
13. Shokirov Shaxrizod HUQUQBULARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH.....	93


14. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI.....	102
15. Akramov Xasan YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	108
16. Kalanova Sabohat JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA.....	117
17. Axrorov Zohidjon O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOYIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.....	126
18. Xujanov Zafar KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI.....	132
19. Turanazarov Umid KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI.....	138
20. Kaxarova Nilufar SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.....	145
21. Хакимова Анора ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	154
22. A‘zamxonov Saidabzalxon TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIM OLIHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	163
23. Ro‘zimatov Elbek VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI.....	170
24. Masharipov Baxtiyar SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	177
25. Muzaffarov San‘atbek VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI.....	185
26. Yo‘ldashev Shoxrux YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA.....	190

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Alikariyeva A'loxon,
O'zbekiston Milliy universiteti
"Sotsiologiya" kafedrasida doktoranti, s.f.n., dotsent
e-mail: alohon77@ya.ru

ТА'ЛИМ СИФАТИ БОШҚАРУВИГА NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800124>

ANNOTATSIYA

Ma'lumki, so'nggi yillarda ta'lim sifatini sotsial boshqarishning mohiyatini belgilovchi ta'lim sifati boshqaruvini takomillashtirishning eng muhim tendensiyasi tizimli yondashuv bo'lib, u nafaqat uslubiy tadqiqotning bir turi, balki murakkab dinamik muhitda yaxlit va majmuaviy ta'lim boshqaruvini taqdim etish imkonini beradigan boshqaruv tafakkurining zamonaviy usuli sifatida qaraladi. Ushbu maqolada muallif tomonidan ilmiy manbalarda ta'lim sifati boshqaruvi tizimiga oid Sharq mutafakkirlari, jadidchilik harakati namoyondalari, xorij va mamlakatimiz olimlarining qarashlari keltirilgan. Shuningdek, ta'lim sifati boshqaruvi ta'rifiga ilmiy yondashuvlarni shakllantirish orqali ushbu tizimning uslubiy asoslarini, oliy ta'lim muassasalarida tizimdan va uning quyi tizimlaridan amaliy foydalanish, shakllantirish, joriy etish usullarini ishlab chiqish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, tizim, oliy ta'lim, tarbiya, jadidlar, madrasa, ijtimoiy mexanizm, ta'lim sifati, quyi tizimlar, usullar.

Аликариева Аълохон,
к.соц.наук, докторант кафедры «Социология»
Национального университета Узбекистана
e-mail: alohon77@ya.ru

АНАЛИЗ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ К УПРАВЛЕНИЮ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

Известно, что в последние годы важнейшей тенденцией совершенствования управления качеством образования, определяющей сущность социального управления качеством образования, является системный подход, который представляет собой не только вид методического исследования, но и представляет собой целостный и комплексный подход. Интегрированное управление образованием в сложной динамичной среде рассматривается как современный метод управленческого мышления, позволяющий добиться успеха. В данной статье автор представляет взгляды восточных мыслителей, представителей модернистского движения, зарубежных и отечественных учёных на систему управления качеством образования в научных источниках. Также, путем формирования научных подходов к определению управления качеством образования были проанализированы вопросы разработки методологических основ этой системы, практического использования системы и

ее подсистем в высших учебных заведениях, методы формирования и внедрения.

Ключевые слова: управление, система, высшее образование, образование, современность, медресе, социальный механизм, качество образования, подсистемы, методы.

Alikarieva Alohon,
Candidate of Social Sciences,
doctoral student of the Department of Sociology
of the National University of Uzbekistan,
e-mail: alohon77@ya.ru

ANALYSIS OF THEORETICAL APPROACHES TO EDUCATION QUALITY MANAGEMENT

ABSTRACT

It is known that in recent years, the most important trend in improving education quality management, which determines the essence of social management of education quality, is a systematic approach, which is not only a type of methodological research, but also represents a holistic and integrated approach. Integrated education management in a complex dynamic environment is considered as a modern method of management thinking to achieve success. In this article, the author presents the views of Eastern thinkers, representatives of the modernist movement, foreign and domestic scientists on the education quality management system in scientific sources. Also, by forming scientific approaches to defining education quality management, issues of developing the methodological foundations of this system, the practical use of the system and its subsystems in higher educational institutions, methods of formation and implementation were analyzed.

Key words: management, system, higher education, education, modernity, madrasah, social mechanism, quality of education, subsystems, methods.

KIRISH

Dunyo globallashuv davrida fan, ta'lim va madaniyatlararo integratsiyalashuv tendensiyasining kuchayishi barcha sohalarda innovatsion yondashuvni qo'llashning ijtimoiy zarurati ortib bormoqda. So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda sodir bo'layotgan tub islohotlar ta'lim tizimini rivojlantirish uchun juda muhim bo'lgan bir qator nazariy va hamda amaliyotga doir dolzarb muammolarni ochib bermoqda. Shu boisdan ham, ta'lim sifatini sotsial boshqarish nazariyasi va amaliyoti ta'lim samaradorligiga erishishning istiqbolli diskursiv yondashuvlarini ishlab chiqish, bu jarayonni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilashni kun tartibiga chiqazadi. Zero, sotsial boshqaruv fanining zamonaviy yondashuvlarini ta'lim sohasida qay darajada qo'llash mumkinligini, bu borada qanday istiqbolli g'oyalarni ta'limni sotsial boshqarish tizimi mutaxassislari va rahbarlari faoliyatiga singdirishni ijtimoiy zarurat sifatida anglash muhim ahamiyatga egadir.

Boshqaruv nazariyasi va amaliyotiga munosib hissa qo'shgan mumtoz hukmdor va olimlarimiz Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir (1336-1405), Mirzo Ulug'bek Muhammad Tarag'ay (1394-1449), Alisher Navoiy (1441-1501), jadidchilik harakati namoyondalaridan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919), Munavvar Qori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), Abdurauf Fitrat (1884-1938), G'arb olimlaridan Adam Smit (Angliya, 1776), Frederik Teylor (AQSh, 1910), F.Kene (Fransiya, 1958) lar bu borada muayyan tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

METODOLOGIYA

Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy insonning sifatlarini biri-biri bilan naqadar tutashganini ko'rsatib, iymoni bor insonda hamma yuksak fazilatlar bo'lmog'i lozim, deb hisoblagan. Alisher Navoiy ta'sis qilgan madrasalardagi o'qish-o'qitish tizimining ba'zi o'ziga xos jihatlari, olimlar va talabalarga to'lanadigan nafaqa va maoshlar haqida uning o'zi "Vaqfiya" asarida ma'lumot bergan [1]. Unda aytilishicha, madrasadagi har bir dars halqasi (potok)da o'n bittadan tolibi ilm tahsil olgan, ular o'zlashtirishlariga qarab uch tabaqaga – a'lo, vasat (o'rta) va adno (quyi)ga bo'lingan hamda shu mezon asosida ularga nafaqa (stipendiya) tayinlangan. Bu hozirgi zamondagi

universitet tizimiga juda o'xshaydi. Shuni eslatish joizki, Navoiy madrasani boshqarishni mutavalli zimmasiga yuklagan bo'lsa-da, ammo madrasa hayoti bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etishda mutavallining "ikki mudarris ittifoqi bila" [2] amal qilishi lozimligiga, ya'ni boshqaruvning kengash (bu o'rinda uch kishi – mutavalli va ikki mudarrisdan iborat) qarori asosida amalga oshirilishiga ham ishora qilingan (bu hozirgi OTMda faoliyat ko'rsatuvchi ilmiy kengashlarning kichik bir shakli, mohiyati jihatidan esa aynan o'zidir).

Mirzo Ulug'bek mamlakatimizda ilk bor o'rta va oliy ta'lim dargohlarining ko'paytirishga va ularni boshqaruvchi, yuqori, oliy darajadagi malakali kadrlar bilan ta'minlash ishiga ahamiyat berishga kirishgan davlat arboblardan, ilm-fan fidoyilaridan edi. U Buxoro, G'ijduvon, Samarqand kabi ko'pgina yerlarda madrasa va masjidlar qurdirib, ilm-fan markazlarini tashkil etishga kirishganligi hamda ilm-fanning rivojlanishiga o'z davrining yetuk olimlari va iste'dodli talabalarni bu markazlarga jalb etgan. Samarqand madrasai oliyasi o'lka xalqlariga ilm-fan markazi, balki o'sha davr ulamolari uchun o'ziga xos oliy o'quv yurti, ya'ni hozirgi universitet vazifasini o'tagan. Bu yerga Turonu eronlik 200 dan ortiq olimlar jalb etilib, bevosita Ulug'bek homiyligida faoliyat ko'rsatishgan.

Jadidlar odamlar ongida o'ziga xos o'zgarish yasashning uddasidan chiqa bildi. Jamiyatni o'zgartirish konsepsiyasini yarata oldi va konsepsiya barcha masalalarni qamrab oldi. Yangi avangard jadidlar adabiyoti, yangi dramaturgiyaga asos soldi. Ta'limning yangi shakllarini yaratdi. Yangicha o'quv metodikasi liderlaridan biri alloma, yozuvchi, jamoat arbobi va o'zbek dramaturgiyasi asoschisi Maxmudxo'ja Behbudiy yangi usuldagi maktablarning asoschisi hamda targ'ibotchisi, yangi darsliklarning ilk muallifi bo'lgan. Mahmudxo'ja Behbudiy buyuk ma'rifatparvar va yetakchi jadidchi sifatida milliy madaniyatimiz tarixidan mustahkam o'rin egallagan inson edi [3].

Munavvar qori Abdurashidxonov maktablar uchun grammatika va alifbo asoslari ifodalangan "Birinchi ustoz" nomli yangi usuldagi ilk darslikni tayyorlaydi. "Ikkinchi ustoz" deb nomlangan ikkinchi kitobida o'qish va yozishga qaratilgan uslubni, shuningdek, oiladagi o'zaro munosabatlarni yoritgan [4]. Musulmon sharqi mumtoz pedagogikasining zabardas bilimdoni, shu bilan birga, XX asr zamonaviy o'zbek pedagogikasining asoschisi, o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi fanining tamal toshini qo'ygan mutafakkir Abdulla Avloniydir. U faoliyatining ilk bosqichidan to umrining so'nggi damlarigacha o'qituvchilik qildi, boshqaruv masalalariga e'tibor qaratdi, ta'limning ham nazariy, ham amaliy masalalari bilan muttasil shug'ullandi, darsliklar yaratdi. Abdulla Avloniy kishining ilm olishini eng yuksak fazilat hisoblaydi. Uning aytishicha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, ilm xalq farovonligi yo'lida qo'llanilmasa, u o'likdir. Shuning uchun ham, adib xalqqa ko'proq nafi tegadigan ilm-hunar bilan shug'ullanishni taklif etadi [5].

Abdurauf Fitrat ilm-ma'rifatning jamiyat taraqqiyoti va inson kamoloti, madaniyat rivojida muhim ahamiyatga molikligini yuqori baholagan. Vatan ravnaqi, xalq, millat ozodligi, farovonligi uchun kurashgan. Bu yo'lda o'zi fidoyilik timsoli, namunasi bo'lgan, yoshlar haqida qayg'urib, ularni jismonan sog'lom, ilm-fan sohibi qilib kamol toptirish xususida fikr bildirgan [6]. Uning vatanparvarlik, xalqparvarlik, ilm-fan taraqqiyoti, ta'limdagi boshqaruv haqidagi g'oyalari hozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

G'arbda esa ilmiy boshqaruv asosini M.Veber, F.Teylor, A.Fayol, G.Emerson, L.Urvik, Ye.Meyo, P.Druker, G.Saymon, A.Etsioni, L.Bertalanffi, R.Maylz [7] boshqaruv nazariyasiga doir konsepsiya tushunchalari va toifalarini shakllantirib, uning ikkita quyidagi asosiy shaklini aniqlaganlar. Bular moddiy va inson resurslari imkoniyatlarini tadqiq etishdir. Mazkur olimlar ta'limga doir mehnatni insonparvarlashtirish va sotsial boshqaruvni tashkil etish sohasidagi amaliy ishlanmalari boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qildi hamda xodimlarni boshqarish yoki, to'g'rirog'i, inson resurslarini boshqarish, deb ataluvchi maxsus boshqaruv amaliyotining asosiga aylandi.

Ilmiy boshqaruv asoschilaridan biri A.Fayol [8] shunday deb yozadi: "Men quyidagi ta'rifni taklif qilaman: boshqaruv – bu oldindan ko'ra bilish, tashkil qilish, idora qilish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish demakdir". Shuningdek, ilmiy boshqaruv maktabi asoschisi F.Teylor [9] boshqaruvni "nima qilish kerakligi va buni eng yaxshi hamda arzon usul bilan qanday amalga oshirish kerakligini bilish san'atidir", deb ta'riflagan. Dunyoda boshqaruv sohasidagi nazariyalarning yana bir yetakchi olimlaridan hisoblanmish P.Druker [10], quyidagi ta'rifni ilgari suradi: "boshqaruv – faoliyatning

alohida turi bo‘lib, u uyushmagan olomoni foydali, aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan va unumli guruhga aylantiradi”. Shu o‘rinda, P.Drukerning quyidagi fikrini ham ta‘kidlab o‘tish joizdir: “hozir dunyoda kambag‘al va boy davlatlar emas, balki yomon va yaxshi boshqarilayotgan davlatlar mavjuddir”.

ASOSIY QISM

Fikrimizni umumlashtirgan holda qayd etish joizki, boshqaruvning klassik konsepsiyalari orasida ishlab chiqarish sohasidagi insonning o‘rni va rolini kuzatishga imkon beradigan quyidagi yondashuvlar mavjud:

1. F.Teylor asos solgan boshqaruvga iqtisodiy yondashuv insonning kasbiy faoliyatga nisbatan pozitsiyasini belgilab, uning tashkilotdagi o‘rni va optimal ta‘sir kuchini, insonga mehnat resurslaridan foydalanish mumkin bo‘lgan vosita sifatida, mexanizmning bir elementi sifatida qaralishini aniqlab berdi. O‘tgan asrning boshlarida eng aniq ifodaga ega bo‘lgan F.Teylorning “ilmiy boshqaruv”, M.Veberning “ideal byurokratiya”, A.Fayolning “ma‘muriyat ilmi” konsepsiyalari dastlab qat‘iy ratsionalizm yo‘lidan bordi.

2. Boshqaruv sohasiga doir ikkinchi nazariya organik yondashuv bo‘lib, u ikkita asosiy taqqoslashni keltirib chiqardi. Birinchisi – tashkilot shaxs sifatida, ya‘ni unda har bir inson o‘z maqsadlari, qadriyatlar, xulq-atvor qoidalari haqidagi g‘oyalarga ega bo‘lgan mustaqil subyekt bo‘lib, ehtiyojlarining o‘ziga xos xususiyatlari hamda asosiy yo‘nalishlarini o‘rganadi. Ikkinchisi – tashkilot aql markazi sifatida, ya‘ni turli xil aloqa, boshqaruv, nazorat va o‘zaro ta‘sir aloqalari bilan bog‘langan turli quyi tuzilmalarni o‘z ichiga olgan murakkab organizm sifatida talqin etadi.

3. Boshqaruv sohasiga doir gumanistik yondashuv esa tashkilotni madaniyat sifatida anglash, insonni esa ma‘lum bir madaniy an‘analar doirasida rivojlanayotgan shaxs sifatida taqqoslash taklif qilindi. Bunday xodimga nisbatan personalni boshqarish funksiyasi insonni mustaqil, faol shaxs sifatida ko‘rsatish, qadriyatlar, qoidalar va qabul qilingan xulq-atvor me‘yorlariga rioya qilish nuqtai nazaridan amalga oshirish mumkin. Boshqaruv sohasini zamonaviy anglash darajasi (o‘tgan asrning 80-90-yillari) boshqaruv faoliyatining obyekt jarayonlar, insonlar, ularning faoliyati va boshqalar emas, balki har xil turdagi tashkiliy madaniyatlar ekanligini bildiradi. Madaniy omillarning iqtisodiyotga ta‘siri haqidagi g‘oyalar Rossiyalik taniqli sotsiolog-olim R.V.Rivkinaning ilmiy ishlarida aks ettirilgan bo‘lib [11], u jamiyatning iqtisodiy madaniyati iqtisodiy sohada amalga oshiriladigan va insonlarning iqtisodiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan an‘analar, urf-odatlar va belgilangan xulq-atvor normalarini o‘z ichiga olishini ko‘rsatdi.

Yuqoridagi konsepsiyalarni tahlil qilinganda ma‘lum bo‘ldiki, ularning barchasi olib borayotgan dissertatsiya ishimizning mazmun-mohiyatiga mos keladi va ulardan ta‘lim sifati sotsial boshqaruvini rivojlantirishda foydalanish imkoniyatini beradi.

Shu tariqa, boshqaruvning klassik nazariyalari asoschilari ilg‘or fan va boshqaruv amaliyoti arsenaliga kiruvchi va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ma‘lum darajada bog‘liq bo‘lgan rejalashtirish tizimlari, shakllari, usullarini ishlab chiqdilar. Bugungi kunda sotsial boshqaruv tizimlarini yaratish va faoliyat ko‘rsatish qonuniyatlarini aniqlash uchun yanada jadal, murakkab, taxmin qilinishi qiyin bo‘lib borayotgan tashqi muhit katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Shuning uchun, zamonaviy boshqaruvda klassik modellar bilan bir qatorda noklassik yo‘nalish ham ajralib turadi [12].

Demak, birinchidan, boshqaruv organlari hamda bo‘g‘inlari tashkilotlar va muassasalarning samarali faoliyatini ta‘minlash uchun yaratiladi. Ikkinchidan, sotsial boshqaruv mexanizmi tashkilotlar va muassasalarning sifatli faoliyatini ta‘minlashga qaratilgan, shuning uchun boshqaruv organlari va bo‘g‘inlari boshqaruv mexanizmi elementlari tarkibiga kirishi mumkin emas. Binobarin, sotsial boshqaruv uzluksiz xususiyatga ega bo‘lib, muntazam ravishda bir-birining o‘rnini egallaydigan boshqaruv jarayonidan iborat. Demak, boshqaruv asoslari insonlar tomonidan yaratiladi va maqsadli o‘zgartiriladi, ular aniq tarixiy sharoitlarda ko‘proq samaraga erishish uchun boshqaruvning shakl va usullari, vositalari, rag‘batlarini qat‘iy belgilashni amalga oshiradilar.

Ukrainalik sotsiolog G.V.Shchekinning [13] fikricha, boshqaruvni iqtisodiy, tashkiliy va sotsiomadaniy mexanizmlarga ajratish mumkin. Demak, mexanizmlarning o‘zaro bog‘langan holda harakat qilishi asosini sotsial rivojlanish hamda boshqaruvning obyektiv qonunlari tizimi talablari

tashkil etadi. Rossiyalik olim Ye.F.Yaskov [14] boshqaruvni “boshqaruvchilik jarayonini faol holatga keltiradigan alohida qurilma” sifatida talqin etadi. Boshqaruv tushunchasining mazmunini “qurilma” orqali ochib berishga urinish, o‘zining oddiyligiga qaramasdan, bir qator ma’no jihatdan va metodologik noaniqliklarga ega, deb o‘ylaymiz.

Ba’zi mualliflar, ya’ni Rossiyalik V.I.Kurbatov, O.V.Kurbatovalarning [15] fikricha, haqqoniy ravishda, sotsial texnologiyalar jamiyatni avtomatlashtirilgan apparatga, sotsial institutlarni esa insonni yutib yuborishga sozlangan sotsial yaxlit agregatga aylantirishga qodir deb, qayd etishadi. “Boshqaruv” tushunchasi ko‘rib chiqilganda, u keng falsafiy ma’noda, avvalambor, ijtimoiy sohaga tegishli ekanini, boshqaruvning amaliy ifodasining vositasi sifatida ishtirok etishini ham hisobga olish lozim. Aynan mexanizmda oxir-oqibat sotsial boshqaruvning subyektning obyektga ta’sirini tashkil qilish sifatida, obyektiv qonuniyatlarga moslashtirish uchun mo‘ljallangan faoliyatning alohida ko‘rinishi sifatidagi mohiyati mujassamlangan. Uning boshqaruv nazariyasidagi o‘rni va ahamiyati, avvalo, shu bilan belgilanadi.

Respublikamizning taniqli olimlari Bekmurodov M.B., A.Begmatov, O.S.Obidov, M.X.Saidov, L.V.Peregudovlar [16] ishlarida sotsial boshqaruvning ilmiy asoslari va oliy ta’limni boshqarishning tuzilishi, tizimi, o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarish hamda ta’lim tizimini sotsial boshqarishning sotsial-iqtisodiy mexanizmlari xususida fikr yuritilgan.

Jamiyatni maqsadli sotsial boshqarish xalqimiz tabiatiga o‘tmishdan salbiy meros sifatida o‘tgan irratsionalistik kayfiyatlardan, ya’ni voqelikni chuqur his etmaslik, yuz berayotgan jarayonlar, o‘zgarishlarni, tashqi va ichki xavflarni anglab yetmasdan g‘aflatda yashayverishdan ishonchli muhofaza ham etadi, deb fikr yuritadi o‘z risolasida mashhur sotsiolog olim M.B.Bekmurodov. Shuningdek, davlat va jamiyat boshqaruvida kompromiss emas, balki konsensus nazariyasiga tayanilmoqda. Ijtimoiy munosabatlarda konsensus, ya’ni hamjihatlik, yakdillik nazariyasi odamlarning ko‘tarinki ruhiyatini ta’minlovchi ijtimoiy-ma’naviy muhitni barcha oila, mahalla, korxonalar va tashkilotlarda shakllantirish talabi sifatida namoyon bo‘lmoqda hamda bu talab keng ko‘lamli ijtimoiy harakatga aylanmoqda [17]”, deya ta’kidlaydi M.B.Bekmurodov.

Respublikamiz taniqli sotsiologlaridan yana biri A.Xolbekovning [18] fikricha, boshqaruv – ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan faoliyatdir, u eng kam vosita (vaqt, kuch va zahiralalar) sarflab, eng yuqori natijaga erishish bo‘yicha aniq maqsadli, rejali va ongli ravishda tashkil etilgan hamda nazoratni talab etadigan aqliy faoliyatdir. Ommani maqsadli boshqarish va bu jarayonlarni milliy manfaatlar hamda umuminsoniy tamoyillar mutanosibligi negizida amalga oshirish mamlakatning umumiy intellektual va estetik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, siyosiy va axloqiy barqarorligiga mustahkam zamin yaratadi.

Mamlakatimizda sotsial boshqaruv fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan olimlardan M.Sharifxujayev, Yo.Abdullayevlar boshqaruv – bu o‘ziga xos yuksak san’at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir, deb ta’kidlab, quyidagicha ta’rif beradi: “boshqaruv – bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir” [19]. Akademik S.S.G‘ulomovning fikricha, “sotsial boshqaruv – maqsadga muvofiq boshqaruv usuli yoki mehnatni samarali tashkil qilishga yo‘naltirilgan boshqaruvdir. Hozirgi davrda sotsial boshqaruv – boshqaruvga qo‘yiladigan turli talablarni, ya’ni ish usuliga, ishni olib bora olish qobiliyatiga, odamlar harakatini birgalikdagi faoliyatda to‘g‘ri yo‘naltirish san’ati va fanga qo‘yiladigan talablarni qattiq, ma’muriy talabisiz belgilangan maqsadning bajarilishini o‘zida aks ettiradi” [20].

Iqtisodchi olimlardan biri M.X.Saidov [21] o‘z risolasida sotsial boshqaruv faoliyati o‘z mohiyati va tavsifiga ko‘ra jamiyat hayotida aqliy tartibga solish ahamiyatiga ega ekanligini ta’kidlaydi. Insoniyat fan-texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy yutuqlarini qanchalik ko‘paytirib borsa, boshqaruv faoliyatining shunchalik ilmga bo‘lgan talabi to‘xtovsiz oshib borishi sodir bo‘ladi. “Boshqaruvning mohiyati – obyektiv va subyektiv sharoitlarini qo‘yilgan maqsadga erishishga imkon beradigan nisbat va munosabatda bo‘lishini ta’minlashdan iborat”, deb fikr yuritadi.

G‘.M.Qosimovning fikricha, “sotsial boshqaruv – bu boshqarish orqali ishlarni amalga oshirish, ishbilarmonlar qanday ish yuritishini o‘rgatish, yangi boshqarish tafakkurini shakllantirishdir. Boshqaruv, deganda firmalarning maqsadiga erishishlarini tashkil etish,

rejalashtirish, nazorat qilish, tashkilot ichidagi o‘zaro ta’sir etishni muvofiqlashtirish, firma salohiyatidan foydalanish orqali jarayonlar, munosabatlar, harakatlarni amalga oshirish kabilarni anglanadi” [22].

Demak, sotsial boshqaruvni belgilangan maqsadlarga erishiladigan asosiy faoliyatni tashkil etishni ta’minlaydigan alohida faoliyat turi sifatida tushunish mumkin. Sotsial boshqaruv umumiy faoliyat bilan bog‘langan bir nechta elementlar (insonlar, tashkilotlar) mavjud bo‘lganda paydo bo‘ladi va bunday faoliyatning ma’lum bir umumiy maqsadi mavjud. Ta’lim sifatini sotsial boshqarishni tartibga solish, sifat xususiyatlarini saqlab qolish, takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida ta’limga ta’sir qilishdan iborat.

Ta’lim sohasidagi sotsial boshqaruv faoliyatining ma’nosi ijtimoiy buyurtmaning ta’lim tizimining salohiyatiga mos kelishini ta’minlashdan iborat. Hozirgi kunda ta’lim sifati, uning maqsadlari ta’limdan tashqari tizimlar – davlat, jamiyat, iqtisodiyot va ish beruvchilar tomonidan belgilanadi. Ta’lim xizmatlari bozoriga moslashishi kerak bo‘lgan ta’lim tizimini sotsial boshqarishning o‘zgacha strategiyasiga ehtiyoj tug‘ildi. Ta’lim tizimini isloh qilish, uning sifatini oshirish bo‘yicha turli ishlanmalar, sotsial boshqaruvni takomillashtirish chora-tadbirlari shunga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Ta’lim sifatini boshqarishning muhim xususiyati shundaki, u o‘quv jarayonidan alohida amalga oshiriladigan maxsus faoliyat turidir. Shuningdek, bu shuni anglatadiki, ta’lim tizimini boshqarish uchun o‘zining munosabatlar tizimi va hal qilinadigan vazifalariga (boshqaruv funksiyalari) ega bo‘lgan maxsus tashkilotlar (boshqaruv tuzilishi) yaratiladi. Boshqaruv zarurati boshqariladigan tizimning jadalligi bilan bog‘liq. Boshqaruv nazariyasiga oid adabiyotlarda ta’kidlanganidek, agar biron bir tizim doimo bir xil holatda bo‘lishi mumkin bo‘lsa, unda boshqaruvning hojati yo‘q. Boshqaruvning ma’nosi jadal tizimga ma’lum o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun maqsadli ta’sir qilishdan iborat.

Boshqaruv, deganda “boshqariladigan tizimning maqbul ishlashi va rivojlanishini ta’minlaydigan, zarur optimal pedagogik sharoitlar, usullar, vositalar va ta’sirlardan foydalangan holda maqsadlarga erishish uchun uni yangi, sifat jihatidan yuqori darajaga ko‘tarishni ta’minlaydigan turli darajadagi boshqaruv subyektlarining maqsadli faoliyati” [23] ni tushunish kerak.

Ta’limni boshqarish uchun tizim asosiy tushuncha hisoblanadi. Ta’lim – bu ijtimoiy tizim, uning tarkibiy qismlariga xos bo‘lmagan integrativ fazilatlarini shakllantiradigan shaxslarga, buyumlarga, jarayonlarga nisbatan tartiblilikdir [24]. Tizim yondashuvining birinchi qoidalaridan biri shundaki, atrof-dagi voqelik o‘z tabiatiga ko‘ra bir-biridan alohida va ajratilgan obyektlar emas, balki ma’lum bir turdagi tizimli bir butun shakllanishlardan iborat bo‘lgan ko‘plab hodisalar, jarayonlar, obyektlardan iborat. Ijtimoiy tizimlarning xarakterli xususiyatlari ularning organikligi va maqsadga muvofiqligidir. Organik tizim “o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi yaxlitlik bo‘lib, u o‘zining rivojlanish jarayonida ketma-ket murakkablashuv va differensiallanish bosqichlarini bosib o‘tadi. Bu ularni noorganik tizimlardan ajratib turadigan organik tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlaridir” [25].

Ta’lim tizimi – bu shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro, atrof-muhit, ma’naviy va moddiy qadriyatlarini o‘rtasidagi hamkorlik asosida o‘zaro ta’sir qiluvchi asoslangan ijtimoiy yaxlitlik hisoblanadi. Boshqariladigan tizimni shakllantirish qonuniyatlarini, uning tuzilishini, jamoaga ta’sir qilish usullarini, uning a’zolarining xatti-harakatlarining motivatsiyasini shakllantiradigan, texnologiya va texnik jihozlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, zamonaviy ta’limni boshqaruviga xos bo‘lgan boshqaruv ishi, asosiy tamoyillar ta’limning asosiy xususiyatlarini boshqariladigan tizim sifatida ko‘rib chiqish zaruriyatini yaratadi.

Ta’lim sifati boshqaruvi quyidagi muammolarni hal qilishi kerak bo‘lgan murakkab tizimdir:

- holatni baholash – boshqaruv obyektining oldiga qo‘yilgan maqsadlarga nisbatan o‘rnini aniqlash;
- rejalashtirish – boshqaruv obyektini uning oldida turgan maqsadlarga mos (yaqinroq) yangi holatga o‘tkazish yo‘llarini (yo‘nalishlarini) aniqlash;
- tashkillashtirish – rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar, tuzilmalar, jamoalar, resurslar va boshqalarni yaratish;
- motivatsiya – rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshiruvchi insonlar uchun rag‘batlantirish

motivlarini yaratish;

– natijalarni nazorat qilish – belgilangan maqsadlarga erishish nuqtai nazaridan bajarilgan ish natijalarini tekshirish.

XULOSA

Yuqoridagilarga asoslanib, ta'lim sifati boshqaruvi faoliyati:

– alohida, buning uchun maxsus ajratilgan vaqtda maxsus tayinlangan shaxslar, tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, ta'lim boshqaruvi ta'lim jarayonidan alohida tarzda amalga oshiriladi (yoki amalga oshirilishi kerak);

– o'quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, professor-o'qituvchilar va talabalarni rag'batlantirishni hamda o'quv jarayonining borishini nazorat qilish orqali uning saqlanishini ta'minlaydi;

– ta'lim tizimi oldida turgan maqsadlarga hozirgi vaqtda ham, uzoq muddatli istiqbolda ham erishishni ta'minlaydi.

Boshqaruv faoliyatining tez o'zgaruvchan xususiyatlari boshqa uslubiy yondashuvni – vaziyatli yondashuvni ochib berish zaruratini keltirib chiqardi. “Vaziyat” tushunchasi muayyan holatni, vaziyatni vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar va holatlarning birikmasini bildiradi. Vaziyatli yondashuvda boshqaruv ta'sirining samaradorligi aniq vaziyat bilan belgilanadi, eng samaralisi esa tegishli vaziyatga ko'proq mos keladigan boshqaruv hisoblanadi. Vaziyatli yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Muhim muammolarni ko'rsatish uchun ta'lim holatini tahlil qilish.

2. Turli vaziyatlarda olingan natijalarning qiymatini aniqlash.

3. Muayyan ta'limdagi vaziyatlarga asoslangan pedagogik tizimlar rivojlanishining prognozi.

Xulosa qilib aytganda, sotsial boshqaruvda tizimli yondashuv ko'plab muammolarni samarali hal etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Uni qo'llash aniq maqsadlar, vazifalar va ularni bajarish xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish, tizim doirasida tartib o'rnatish, qarorlar qabul qilish, shu jumladan, ularni bajarish borasidagi javobgarlik va majburiyatlarni taqsimlash imkonini beradi. Tizimli yondashuvning asosiy vazifasi butun tizimning ish samaradorligini oshirishdan iboratdir. Demak, sotsial boshqaruvda tizimli yondashuv – bu tamoyillar yig'indisi bo'lib, boshqaruvchi va boshqariluvchilarning butun faoliyati ularga muvofiq ravishda olib boriladi. Tizimli yondashuvda baholash va har qanday harakatlarni aniqlash imkonini beruvchi mezon “tizim” tushunchasidir. Yuqoridagi nazariy va uslubiy yondashuvlar innovatsion ta'lim sifati boshqaruvi tizimini rivojlantirish uchun asos hisoblanadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Alisher Navoiy. Vaqfiyya. Nashrga tayyorlovchi I.Shamsimuhamedov. – Toshkent.: “Fan”. 1991. – B.100-106.
2. Qareng: Alisher Navoiy. MAT. 14-tom. – B.267-269.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999 (ikkinchi nashri). – 74 b.
4. Abdurashidxonov M. Tanlangan asarlar. – Tashkent: Ma'naviyat, 2003. – 304 b.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
6. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003. – 256 b.
7. Вебер М. Избранное: Образ общества. – М.; СПб.: Центр гуманитарных инициатив, 2017. – 767 с; Файоль Ф., Эмерсон Г., Тэйлор Ф., Форд Г. Управление - это наука и искусство. – М., 1992; Тейлор Ф. Принципы научного менеджмента. – М., 1991; Файоль А. Общее и промышленное управление. – М., 1924; Эмерсон Г. Двенадцать принципов производительности труда. – М., 1992; Urwick L. The Meaning of Rationalization. – London : Nisbet, 1929. – P. 54 ; Шелдрейк Дж. Теория менеджмента: от тейлоризма до японизации / пер. с англ. под ред. В.А.Спивака. – Санкт-Петербург : Питер, 2001. – С. 167; Elton Mayo.”The Social problem of an Industrial Civilisation With an appendix on the political problem” - 1946; Друкер П. Управление, нацеленное на результат. – М.,1996; Simon H.A. Administrative Behavior, 1947; Etzioni A. A Comparative Analysis of Complex Organizations. – Glencoe, Ill: Free Press, 1961. Modern Organizations. – Englewood Cliffs, N.J.: Prentice-Hall,

- 1964; Бергаланфи Л. История и статус общей теории систем // Системные исследования. Ежегодник. 1973. – С. 20-36; Miles R. Theories of Management: Implications for Organization Behavior, 1975.
8. Файоль А. Общее и промышленное управление // Управление это наука и искусство: А.Файоль, Г.Эмерсон, Ф.Тейлор, Г.Форд. – М.: Республика, 1992. – 351-354 с.
 9. Тейлор Ф.У. Принципы научного управления. – М., 1991. – С.49-52.
 10. Друкер П.Ф. Эффективное управление. – М., 2004. – 87 с.
 11. Рывкина Р.В. Экономическая социология переходной России. Люди и реформы. – М., 2018.
 12. Волков Ю.Г., Лубский А.В., Мостовая И.В., Предвечный Г.П., Харитонов Е.М. Стратегия деятельности администрации в неопределённости (методологические проблемы регионального управления)// Инновационные подходы в науке: Сб. статей. – Ростов - на Дону, 2015; Степанов С.Ю., Маслов С.Н., Яблокова Е. Управленческая инноватика: рефлепратические методы. – М., 2016.
 13. Щёкин Г.В. Теория социального управления. – Киев.: МАУП, 2016. – 418 с.
 14. Яськов Е.Ф. Становление, формирование и проблемы дальнейшего развития науки управления органами внутренних дел. – М., 2016. – С. 41-45.
 15. Курбатов В.И., Курбатова О.В. Социальное проектирование. – Ростов-н /Д., 2018. – С.316-320.
 16. Bekmurodov M.B., Begmatov A. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati. – Toshkent: Adolat, 2017. – 77 b; Obidov O.S. Oliy ta'lim tizimida boshqaruvni takomillashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 198 b; Saidov M.X., Peregudov L.V. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. – Toshkent: Moliya, 2012. – 191 b.
 17. Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi//Darslik. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – В.136-139.
 18. Xolbekov A. Boshqaruv sotsiologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Akademiya, 2007. – В. 88-89.
 19. Sharifxujayev M., Abdullayev Yo. Menejment. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – В.7-10.
 20. G'ulomov S.S. Menejment asoslari//Darslik. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririya, 2002. – 370 b.
 21. Saidov M.X., Peregudov L.V. "Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. – Toshkent: Moliya, 2002. – В. 3-7.
 22. Qosimov G'.M. Menejment: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 312 b.
 23. Управление образованием по результатам. Теория и практика/Под редакцией П.И.Третьякова. – М., 2016.
 24. Аликариев Н.С. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Ижтимоий тадқиқотлар журнали” (www.tadqiqot.uz/soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1>
 25. Юдин Э.Г. Методология науки. Системность. Деятельность. – М., 2017. – С.180; Панасюк В.П. Системное управление качеством образования в школе. – М., 2018.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000